

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019yil yanvar-mart

RAQAMLAR:


- 2019yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 849,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 187,6 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 33,9 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 626,9 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.

Viloyatda amalga oshirilgan islohotlar ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 16,8 foizga oshishiga olib keldi. 2019 yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 849,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (33,9 %), moliyaviy xizmatlar (19,7 %), transport xizmatlari (17,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %) tashkil etadi.

2019 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar tarkibi,%




2019 yil yanvar-mart oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 849,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 116,8 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	849,6	116,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	44,9	95,6
moliyaviy xizmatlar	167,2	187,6
transport xizmatlari	147,5	101,1
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	140,7	100,4
yashash va ovqatlanish xizmatlari	24,8	103,9
savdo xizmatlari	287,9	108,4
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	23,4	102,5
ta'lim sohasidagi xizmatlar	41,7	132,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	11,2	115,6
ljara xizmatlari	19,3	102,9
kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	24,1	101,3
shaxsiy xizmatlar	27,3	100,2
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	10,1	148,6
boshqa xizmatlar	20,2	99,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari (287,9 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (167,2 mlrd. so'm), transport xizmatlari hajmi (147,5 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (44,9 mlrd.so'm), ta'lim xizmatlari (41,7 mlrd.so'm) oshganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar-mart oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi. (mlrd so'm)



Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli bo'lmagan holda oshishi sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda kuzatildi. Ularning hajmi 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan 1,8 mlrd.so'mga oshdi.

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (187,6 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (148,6 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (132,7 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (115,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (103,9 %), kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (95,6 %), bosqa xizmatlar (99,0%), shaxsiy xizmatlar (100,2 %), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (101,3 %), kabi xizmat turlarida kuzatildi.


Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (93,5 %) etakchilik qilmoqda.

2019 yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (98,6 %) tashkil etadi.

2019 yil yanvar-mart oylarida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 24,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish 103,9 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,9 % ga yetdi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (%)**




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 89,5 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 10,5 % ga to'g'ri keladi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2019yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 287,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 33,9 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 83,3 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,1 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 4,6 % ni tashkil qiladi.


**2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	849,6	116,8
Jizzax shahri	466,4	124,7
tumahlar		
Arnasoy	15,1	108,1
Baxmal	33,0	110,5
G'allaorol	55,8	110,3
Sh.Rashidov	73,3	107,9
Do'stlik	51,8	107,5
Zomih	39,2	107,7
Zarbdor	19,4	109,1
Zafarobod	11,0	106,5
Mirzacho'l	23,1	105,5
Paxtakor	30,3	107,4
Forish	24,8	111,5
Yangiobod	6,4	110,9

Hududlar o'rtasida Jizzax shahri (466,4 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Jizzax shahri bo'yicha 124,7 % ni tashkil etdi.

Jizzax shahrida yuqori o'sish sur'atining ta'minlanishi birinchi navbatda aholi real daromadlarining oshishi, yakuniy iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Jizzax shahrining ulushi 54,9 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati va ulushi, %




Yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahrida (124,7 %), Forish (111,5 %) Yangiobod (110,9 %) Baxmal (110,5 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Mirzacho'l (105,5 %), Zafarobod (106,5 %), Paxtakor (107,7 % tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Yangiobod tumanida (0,8 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlarining hajmi 147,5 mlrd. so'mni tashkil etib 101,1 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 17,4 foizni tashkil etdi.


2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha transport xizmatlari ulushi (%)



Transport xizmatlarining hududlar bo'yicha eng katta ulushi Jizzax (20,1 %), Sh. Rashidov (17,5 %), G'allaorol (12,1 %) Do'stlik (8,3 %), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi

2019 yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan xizmatlarning eng katta ulushina (33,9 foiz) savdo xizmatlari tashkil etmoqda .

2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi (%)




Savdo xizmatlarining hududlar bo'yicha eng katta ulushi Jizzax (42,1 %), Do'stlik (11,4 %), G'allaorol (8,6 %) va Sh. Rashidov (8,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi

Eng past ulushi Zafarobod (1,0 %), Yangiobod (1,1 %), Arnasoy (1,7 %) va Zarbdor (2,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida t'olim sohasidagi xizmatlar jami xizmatlar hajmining 4,9 foizini tashkil etib 41,7 mlrd. so'm, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 132,7 foizga o'sdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda Do'stlik (198,4 %) ga o'sib bu sohada etakchilik qilmoqda


2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha ta'lim sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati. (%)



Ushbu sohada nisbatan past o'sish sur'atlari Paxtakor (106,6 %), Yangiobod (106,9 %), Zafarobod (107,2 %), Mirzacho'l (107,5 %), tumanlarida kuzatildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar jami 11,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,6 foizga o'sdi va jami xizmatlardagi ulushi 1,3 foizni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori o'sish sur'ati G'allaorol (167,8 %), Zomin (137,6 %) Baxmal (122,2 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan xizmatlarning o'sish sur'ati. (%)



Ushbu sohada nisbatan past o'sish sur'atlari Sh.Rashidov (101,2 %), Arnasoy (102,9 %), Forish (103,4 %), va Yangiobod (103,5 %), tumanlarida kuzatildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 626,9 ming.so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 122,5 ming.so'mga oshdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida - 2668,3 ming so'm qayd etildi.